

"DEVONI FONIY"-NAVOIY IJODINING GULTOJI**Xudoyorova Nigora Nuriddinovna**

Termiz muhandislik -texnologiya instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7140388>

Annotatsiya. "Devoni Foni" ("Foni devoni") — Alisher Navoiyning Foni taxallusi bilan forsiy tilda yozgan she'riy asarlari majmuasi. Navoiy bu devonini umrining so'nggi yillarida, taxminan 1492—98 yillar orasida tuzgan. Ulug' shoir "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zining forsiy tildagi she'rlaridan Xoja Hofiz Sheroziy devoniga o'xshatib ("Xoja Hofiz tavriddakim, jame' suxanadolar va nazmpiyrolar nazarida mustahsan va matbu'dir, tartib beribmenkim, olti mingdan ab'yoti adadi ("baytlar miqdori") ko'prakdurki, ko'prak ul hazratu (Xoja Hofiz) she'riga tatabbu' voqe' bo'lubdur".

Kalit so'zlar: asar, masal, g'zal, tuzilgan, o'ziga xos.

"ДЕВОНИ ФОНИЙ" - ШЕДЕВР ТВОРЧЕСТВА НАВОИ

Аннотация. «Девони фоний» («Девоны фоний») представляет собой сборник поэтических произведений, написанных на персидском языке Алишером Навои под псевдонимом Фоний. Навои составил этот диван в последние годы своей жизни, примерно между 1492-98 гг. В произведении «Мухокамат ул-лугатайн» великий поэт сообщил, что создал из своих персидских стихов диван, подобный дивану Ходжи Хафиза Ширази («на манер Ходжи Хафиза»), он говорит: «Опять персидский поэзия в стиле Ходжи Хафиза мусташан и матбу в глазах всех суханадо и поэтов. Как я упорядочил, насчитывается более шести тысяч стихов («количество строф»), и многие из них навеяны поэзия Ходжи Хафиза.

Ключевые слова: произведение, притча, красивая, структурированная, оригинальная.

"DEVONI FONIY" - A MASTERPIECE OF CREATIVITY OF NAVOI

Abstract. Devoni Foni (Devoni Fonii) is a collection of poetic works written in Persian by Alisher Navoi under the pseudonym Foni. Navoi made this divan in the last years of his life, approximately between 1492-98. In the work "Muhokamat ul-lugatayn", the great poet said that he created a sofa from his Persian poems similar to the sofa of Khoja Hafiz Shirazi ("in the manner of Khoja Hafiz"), he says: "Again Persian poetry in the style of Khoja Hafiz mustashan and matba in the eyes all sukhanaodos and poets. As I have ordered, there are more than six thousand verses ("number of stanzas"), and many of them are inspired by the poetry of Khoja Hafiz.

Keywords: work, parable, beautiful, structured, original.

KIRISH

"Devoni Foni"dagi she'rlarning katta qismini Navoiy salafarlari va zamondoshlarining g'azallariga yozilgan tatabbular tashkil etadi. 554 g'azaldan 237 tasi Hofiz Sheroziy, 52 tasi Abdurahmon Jomip, 33 tasi Xusrav Dehlaviy, 25 tasi Sa'diy Sheroziy, 5 tasi Mavlono Kotibiy, 5 tasi Mavlono Shohiy, 4 tasi Kamol Xo'jandiy va b. shoirlarning g'azallariga bog'langan. Bunda eng ko'p g'azal Hofiz Sheroziy g'azallariga bog'langani va uning she'rlaridan ilxomlanib yozilgani Navoiyning bu buyuk iste'dod egasiga ixlosi yuksak bo'lganidan dalolat beradi. "Devoni Foni"dan Navoiy (Foni)ning o'z original gazallari ham o'rin olgan. Shoir ularni

"Muxtara", "Ixtiro" deb atab, shu yo'sinda tatabbulardan ajratib ko'rsatgan. Shoirning tatabbu, muxtara she'rlarida ishq-muhabbat mavzui ham dunyoviy, ham tasavvufiy-majoziy uslublarda kuylangan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Alisher Navoiy arab, forsiy va turkiy tillarni mukammal bilgan holda ushbu tillarda sermahzum ijod etgan. Xususan, bu jihatlar uning she'riyatida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiyning turkiy tildagi she'riyati shoirning jahoniy shuhratini ta'min etgan bo'lsa, forsiy-tajik tilida bitgan she'rlari ham uning forsigo'ylar orasida ulkan mavqega ega ekanligini yana bir karra tasdiqladi. Shuni borki, ikki tilda yaratilgan she'riyat ham Alisher Navoiy kabi buyuk daho qalamiga mansub ekan, ularni yaxlit holda o'rganish va talqin qilish lozim. Chunki shoirning oliyanob maqsad va fikrlari, yaratgan timsol (obraz)lari har ikki tilda bitgan she'riyatda ham ifoda etilgan. Farq esa – ana shu tillarning xususiyatlarida kelib chiqqan bayon uslubida kuzatiladi. Xuddi shu masala Alisher Navoiy-Foiyning quyidagi mashhur qit'asida bayn etilgan:

Ma'niyi shirinu ranginam ba turki behad ast ,
Forsi ham la'lu durhoyi samin gar bingari.
Go'yo dar rastayi bozori suxan bikshudaam,
Yak taraf do'koni qannodiyu yak so' zargari.
(“Devoni forsi “Dushanbe,” Irfon”, 1993-s, 301)

Mazmuni: Turkiy tilda shirin ma'nolar, badiiy go'zal asarlarim ko'pdir. Forsiy she'rlarim ham qimmatbaho gavharlardir. Bu bilan go'yo so'z bozorining bir tomonida shirinliklar do'koniyu, ikkinchi tomonida zargarlik do'konini ochgandekman.

TADQIQOT NATIJALARI

Bunda ulug' shoir ikki tilda yozgan asarlarining bir xil qimmat va ahamiyatga ega ekanligini chiroyli badiiy tasvirda ifoda eta olgan. Buni hech kim inkor eta olamaydi, aslida ham xuddi shunday.

Mir Alisher Navoiy asosan va ko'proq turkiy tilda ijod qilsalarda, forsiy she'rlar yozishni ham yoshliklaridan umrlarining oxirigacha davom ettirgan edilar. Natijada bu tilda yaratilgan asarlar anchagina miqdorda to'planib qolib, shoir ularni devon holiga keltirishga shoshilmasdi. Alisher Navoiyning bu tildagi she'rlaridan xabardor bo'lgan Sulton Husayn Boyqaro ularni ham to'plashga buyurgan ekan. Bu holni Alisher Navoiyning Sulton Husayn Boyqaroga yozgan bir maktubidan bilish mumkin:

“Alhamdulillah v-al-minna bu uchurda hukm ,yo'suni bila forsiy parish abyot va parokanda ash'orni yig'ib, devon yo'sunluk jild qilinib erdi, Yusuf Alidin tobudg'a yuborildi. Umid ulki ,qabul davlatig'a muzayyan va pisand saodatig'a musharraf va mustahsan bo'lg'ay”(MAT, 14-tom, 219-bet).

Bu maktubda devonning tuzilgan yili va nomi eslatilmagan bo'lsa-da, ammo bularga ishorani “Muhokamat-ul –lug'atayn”da (bu asar 905-hijriy-1499-1500 milodiy yilda yozilgan) berilgan quyidagi ma'lumotda uchratish mumkin: “Yana forsiy g'azaliyot devoni... tartib beribmenkim, olti mingdan abyoti adadi ko'prakdur “(Asarar, 15tomlik 14-tom, 125-bet).

Demak, forsiy she'rlar devoni 905-hijriy, 1499-1500-milodiy yildan oldin-taxminan 1490-yillarning ikkinchi yarmida tartib berilgan. Undagi she'rlarda Foiy taxallusi qo'llanilganligidan uni “Devoni Foiy” tarzida atash odat bo'lib qolgan. “Devoni Foiy”ning muallif qalamiga

mansub dastxat (avtograf)nusxasi noma`lum bo`lsa-da, ammo undan ko`chirilgan nusxalardan yettitasi hozirda ma`lum. Ularning ikkitasi Parij, ikkitasi Turkiya, ikkitasi Hirot va bittasi Tehron kutubxonalarida saqlanmoqda. Adabiyotshunos va matnshunos Hamid Sulaymonovning e`tiroflaricha, bu nusxalardan Parij Milliy kutubxonasidagi ikki nusxa ancha mukammalroqdir".2

Bu tadqiqotda "Devoni Foni"ning besh nusxasidan (2ta Parij, 2ta Turkiya va 1ta Tehron)so`z boradi. Bu devonning Hirotidagi ikkita nusxasi esa Eron olimi Ruhiddin Humoyun Farrux tomonidan foydalanilganligini Ali Muhammadiy eslatadi.

MUHOKAMA

Demak, "Devoni Foni"da jami 1109 ta asar bor bo`lib, ular 6197 baytni tashkil etadi. Ammo bu o`rinda Alisher Navoiyning forsiy tilda bitgan muammolari soni haqida "besh yuzga yaqin muammo" (Asarlar, 15tomlik, 14-tom, 125-bet)degani e`tiborga olinib, bu e`tirof Parij nusxalaridan muammolar soni (373) bilan solishtirsa, unda Parij nusxalari ham "Devoni Foni"ning mukammal nusxalari bo`la olmasligini ko`rsatadi. Bu fikrni Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul-lug`atayn"da forsiy she`rlari janrlari qatorida "masnaviy"ni eslatishi va bu janrdagi asarning esa Parij nusxalarida uchramasligi yana bir karra tasdiqlaydi. "Devoni Foni"ning bizgacha ma`lum bo`lgan qismida son jihatidan eng ko`plari g`azal, muammo, ruboiy va qit`adir. Boshqa janrdagi asarlar son jihatidan (eng ko`plari) ancha kam. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ular haqida ba`zi mulohazalarni bayon etmoqchimiz:

1. G`azal. Devonda g`azal yetakchi o`rinni egallaydi. Ularni ko`zdan kechirgan Hamid Sulaymon, Shoislom Shomammedov, Alisher Shomammedov, Yoqubjon Is`hoqov, Abdulg`ani Mirzoyev, Rasul Hodizoda kabi allomalarning tadqiqotlari shundan guvohlik beradiki Alisher Navoiyning forsiy tildagi g`azallari o`zining mazmun va badiiyati nuqtai nazaridan ulug`shoirning ko`p qirrali mahoratining natijalari bo`lib, ba`zi bir xususiyatlari bilan o`zbek tilidagi g`azallaridan ajralib ham turadi.

XULOSA

Bunday takrorlanmas xususiyatlardan kelib chiqib, forsiy g`azallarni ikki guruhga ajratiladi: birinchi-tatabbu`; ikkinchisi-muxtara`

REFERENCES

1. O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. "Muhokamat -ul-lug`atayn". Alisher Navoiy. Asarlar. 15tomlik, 14-tom, 119-bet.
3. Hamid Sulaymon. Tekstologicheskiye issledovaniye liriki Alishera Navoi. ADD, Tashkent, 1961, str 38-39.